XALQ DEPUTATLARI O‘RTA CHIRCHIQ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - mart VI-32-1-10-143-K/22 O‘rtachirchiq tuman hokimligi

O‘rta Chirchiq tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘rta Chirchiq tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 57 738 948,0 ming so‘m va xarajatlari tartibga soluvchi budjetlararo transferlar *(38 835 212,0 ming so‘m)* bilan birgalikda 96 574 160,0 ming so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun O‘rta Chirchiq tumanining 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq, 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti harajartlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tumanda, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 5-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 7-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 38 835 212,0 ming so‘m etib tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2022 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 911 077,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

10. 2022 yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 714 931,0 ming so‘m etib belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashini mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) Tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 42 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan

tashqari) 40 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tuman mahalliy budjetiga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Kasimov), Moliya bo‘limi (Sh.Ergashev), Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov) tuman hokimligi va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Akromov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi rahbari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga

nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Tuman hokimining o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (R.Djumanova) tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (O‘.Nurmatov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Usmonov) tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Sh.Xamraev) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Kasimov) tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Kasimov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Mazkur qaror “Mash’al” tahririyati gazetasida rasmiy e’lon qilinsin

hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O. Nurmatov**

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
1-ilova

2022 yil uchun O‘rta Chirchiq tumani bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

	Daromad turlari	**Summa ming so‘mda**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	596 415
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	6 143 668
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 682 353
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	844 857
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	2 552 832
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	369 279
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 251 447
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1 223 811
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 308 071
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	589 579
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 860 292
12	Davlat boji	0
13	Jarimalar	0
14	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	280 521
16	Yig‘imlar	0
17	Xususiylashtirish	0
18	Boshqalar	0
JAMI		**34 703 125**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**23 035 823**
19	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	8 718 616
20	Mobil aloqa xizmati	4 967 146
21	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	9 350 061
JAMI DAROMAD		**57 738 948**

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
2-ilova

2022 yil uchun O‘rta Chirchiq tumani bo‘yicha mahalliy budjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori (ming so‘m)**
	Xarajatlar - jami	**96 574 160**
1	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**65 447 912**
1,1	Maorif	10 723 520
	- maktabgacha ta’lim	4 731 644
	- umumiy ta’lim	5 991 876
1,2	Sog‘liqni saqlash	30 970 075
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	12 546
1,3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	2 962 203
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	792 723
	- sport	2 169 480
1,4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	20 671 234
1,5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	108 334
2	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**10 174 552**
2,1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	427 781
2,2	Obodonlashtirish	6 150 980
2,3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 861 172
2,4	Veterinariya qo‘mitasi	805 326
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	929 293
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**10 403 124**
3,1	Davlat boshqaruv idoralari	10 403 124
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**5 082 110**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**911 077**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**4 555 385**
	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	**38 835 212**

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**O‘rtachirchiq tumani**	5	5	10	10	10	50	100	100

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2022 yilda belgilangan koeffisentlar

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun (ming so‘mda)		Jismoniy shaxslar bo‘yich, 1 kv.m uchun (so‘mda)	
		Koeffisentlar (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘I stavkasi 2022 yil uchun	Koeffisentlar (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘I stavkasi 2022 yil uchun
O‘rta Chirchiq tumani		**1.0**	**29,532.0**	**1.0**	**270.0**
1	Yangilik	1.0	29,532.0	1.0	270.0
2	Jangaboy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
3	Galabotir	1.0	29,532.0	1.0	270.0
4	Guliston	1.0	29,532.0	1.0	270.0
5	Turkiston	1.0	29,532.0	1.0	270.0
6	Beshboy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
7	Yangiobod	0.8	23,625.6	0.8	216.0
8	Boyovul	0.8	23,625.6	0.8	216.0
9	Qorasuv	1.2	35,438.4	1.2	324.0
10	Rovotak	1.2	35,438.4	1.2	324.0
11	Fayzabod	1.2	35,438.4	1.2	324.0
12	Do‘stlik	1.1	32,485.2	1.1	297.0
13	Sada	1.2	35,438.4	1.2	324.0
14	Tinchlik	1.2	35,438.4	1.2	324.0
15	Kim Pen Xva	1.1	32,485.2	1.1	297.0
16	Yo'ng‘ichqoli	1.0	29,532.0	1.0	270.0
17	Gulobod	1.0	29,532.0	1.0	270.0
18	Yangi turmush	1.0	29,532.0	1.0	270.0
19	Faravon	1.1	32,485.2	1.1	297.0
20	Saydovulbaxt	1.0	29,532.0	1.0	270.0
21	Mingtepa	0.9	26,578.8	0.9	243.0
22	Burgalik	0.9	26,578.8	0.9	243.0
23	Qaytmas	1.0	29,532.0	1.0	270.0
24	Nomdanak	0.9	26,578.8	0.9	243.0
25	Qoraqo‘yli	0.9	26,578.8	0.9	243.0
26	Mayramko‘l	1.0	29,532.0	1.0	270.0
27	Chuqurovul	0.9	26,578.8	0.9	243.0
28	O‘rtabo‘z	0.9	26,578.8	0.9	243.0
29	O‘rtasaroy	1.0	29,532.0	1.0	270.0
30	Ko‘kmo‘yin	1.0	29,532.0	1.0	270.0
31	Toshloq	1.0	29,532.0	1.0	270.0
32	A.Yo'lbarisov	1.0	29,532.0	1.0	270.0

33	Yuqoriovul	1.0	29,532.0	1.0	270.0
34	O‘rta Ovul	1.0	29,532.0	1.0	270.0
35	Kuchlik	1.0	29,532.0	1.0	270.0
36	Darxon	1.0	29,532.0	1.0	270.0
37	Yoriq	1.0	29,532.0	1.0	270.0
38	Qunduzak	1.0	29,532.0	1.0	270.0
39	Usmonota	1.0	29,532.0	1.0	270.0
40	Changtepa	1.0	29,532.0	1.0	270.0
41	Chegara	1.0	29,532.0	1.0	270.0
42	Qo‘shdaryo	1.0	29,532.0	1.0	270.0
43	Sholikor	1.2	35,438.4	1.2	324.0
44	Mustaqillik	1.2	35,438.4	1.2	324.0
45	Boyqo‘rg‘on	1.1	32,485.2	1.1	297.0
46	Oq ota	1.1	32,485.2	1.1	297.0
47	Mash'al	1.1	32,485.2	1.1	297.0
48	Olti o‘g‘il	1.1	32,485.2	1.1	297.0
49	Adolat	1.1	32,485.2	1.1	297.0
50	Obod	1.0	29,532.0	1.0	270.0
51	Xalqobod	0.9	26,578.8	0.9	243.0
52	Aranshi	0.9	26,578.8	0.9	243.0
53	Yangiyo'l	0.9	26,578.8	0.9	243.0
54	Taraqqiyot	0.9	26,578.8	0.9	243.0
55	Uyg‘ur	1.0	29,532.0	1.0	270.0
56	Bunyodkor	1.3	38,391.6	1.3	351.0
57	O‘choqli	1.3	38,391.6	1.3	351.0

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	O‘rtachirchiq tumani	1,00	1 000 000,0

Xalq deputatlari O‘rtachirchiq tuman
Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-32-1-10-143-K/22-son qaroriga
6-ilova

O‘rta Chirchiq tumani mahalliy budjetining

2022 yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘m

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	O‘rtachirchiq tumani	57 738 948,0	96 574 160,0